



O'zbekiston Respublikasi  
Fanlar akademiyasi

# O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI

4  

---

2025

O'ZBEK TILI, ADABIYOTI  
VA FOLKLORI INSTITUTI



# O'zbek tili va adabiyoti

## O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI

Jurnalga 1958 yil yanvarda  
Oybek asos solgan

Bir yilda olti marta chiqadi

4  
2025

O'zbekiston Respublikasi  
Fanlar akademiyasi  
O'zbek tili, adabiyoti va  
folklori instituti

Toshkent - 2025

*Bosh muharrir:*

Nizomiddin MAHMUDOV

*Tahrir hay'ati:*

Maqsud ASADOV

Rahmatulla BARAKAYEV

Bahodir KARIMOV

Durdona LUTFULLAYEVA

Abdulahob MADVALIYEV

*(bosh muharrir o'rinbosari)*

Yorqinjon ODILOV

Ergash OCHILOV

*(mas'ul kotib)*

Gulchehra RIXSIYEVA

Shomirza TURDIMOV

Boqijon TO'XLIYEV

*(bosh muharrir o'rinbosari)*

Almaz ULVIY

Baxtiyor FAYZULLOYEV

Durdona XUDOYBERGANOVA

Jabbor ESHONQULOV

Berdak YUSUF

Ulug'bek HAMDAMOV

Xayrulla HAMIDOV

## MUNDARIJA

### Tilshunoslik

N.Mahmudov. Tilning umurtqasi.....	3
D.Lutfullayeva. Tilshunoslikning aksiolingvistika yo'nalishi: tadqiq masalalari, tayanch tushunchalari.....	9
A.Hasanov. Til birliklarining fikr shakllantirishdagi vazifasi (etnolingvistik yondashuv).....	17

### Adabiyotshunoslik

B.Karimov. Adabiyotshunoslikda struktural metodni qo'llashga doir.....	34
O.Oltinbek. Rauf Parfining erkin va nasriy she'rlari.....	38

### Ilmiy axborot

J.Ismatilloev. Muhammad Porsoga bag'ishlangan qasidalar.....	49
E.Hazratqulova. Y.Bertels Navoiy adabiy muhiti haqida.....	54
S.Otaqulova. Turkiy nomlardagi faxriya baytlar.....	57
L.Tajibayeva. Halima Xudoyberdieva she'r va shoirlik xususida.....	61
X.Nishonova. Lirik obraz tasvirida qofiyaning o'rni.....	64
D.Xudayarova. Komil Xorazmiy she'riyatining janriy tarkibi.....	70
M.Doniyorova. "Sabot ul-ojizin"da irfoniy-ma'naviy g'oyalar ifodasi.....	75
D.Salimova. Hozirgi shoirlar ijodida shakliy-uslubiy izlanishlar.....	78
M.O'tamurodova. Nurboy Jabborning badiiy matnni baholash mezonlari.....	82
G.Sherjanova. "Layli va Majnun" dramasi variantlari.....	84
P.Turopova. She'riyatda poetik mazmun va estetik ta'sir.....	89
Z.Muqimova. Maqol va topishmoqlarda ma'naviy qadriyatlar ifodasi.....	92
M.Tursunov. Ahmad A'zam asarlaridagi frazeologizmlar lingvopoetikasi.....	96
N.Musulmonova. O.Nasirdinova. Fe'l morfologik shakllarining nutqda qollanish darajasi.....	101

### Fanimiz zahmatkashlari

B.To'xliyev. Emgak tortib ilm o'rgangan xiradmand.....	105
T.Dusanova. Pok tiynatli olim.....	111

### Tanqid. Taqriz. Bibliografiya

N.Uluqov. Sotsiolingvistikaga oid muhim tadqiqot.....	113
X.Hamidov. Yangi o'zbekcha-turkcha lug'at.....	117

### Ilmiy hayot

X.Nishonova. Hodi Zarifov tavalludining 120 yilligi.....	122
Yangi so'z va atamalar.....	124

N. MUSULMONOVA, O. NASIRDINOVA  
**FE'L MORFOLOGIK SHAKLLARINING NUTQDA  
 QOLLANISH DARAJASI**

Fe'l morfologik shakllarining nutqda qo'llanish darajasini aniqlash lingvostatistika, amaliy va korpus tilshunosligi kesishuvida amalga oshiriluvchi tadqiqotlar sirasiga kiradi. Tadqiqotning maqsadi ilmiy izlanishning metodologiyasini shakllantirishini, "til potentsiali, xususan, grammatik ma'nolarning umumiy va xususiy ko'rinishlarini nutqda ro'yobga chiqishi"ni inobatga olib, uning "yo'l xaritasi"ni bosqichma-bosqichlikda tuzish mumkin. Fe'l morfologik shakllarining nutqda qo'llanish darajasini aniqlash o'zbek tili grammatikasini, xususan, fe'l so'z turkumini CEFR baholash mezonlariga ko'ra darajalab (A1, A2, B1, B2, C1, C2) o'qitish uchun lingvistik asosni yaratishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, "osondan murakkabga" tomon – bosqichma-bosqichlik asosiga qurilgan grammatik bilimlarni o'qitish maqsad qilinganda til birliklarining nutqdagi real va sof holati aniq miqdoriy tahlillarni talab qiladi. Tilshunos S. Rizayev fikricha, "Odatda, biror tilni o'rganayotganda dastlab o'sha tilning lug'at boyligiga murojaat qilinadi. Biroq undagi ming-minglab so'zlarni yodda saqlab qolish o'ta mushkul bo'lganligi sababli o'sha tilning eng ko'p va tez-tez takrorlanadigan so'zlarini o'zlashtirishga kirishiladi va asta-sekin so'z boyligini o'zlashtirib borishga harakat qilinadi. Bunda leksik-statistik va grammatik-statistik materiallar asqotadi. Bularning barchasida kompyuterlar ham ishchi kuchi, ham vaqt jihatidan juda yaqin yordamchi hisoblanadi"<sup>2</sup>.

Fe'l morfologik shakllarining miqdoriy tahlillari uchun maqsadli tanlanma va u asosidagi lingvostatistik amallar keng ko'lamlil va uzoq vaqt talab qiluvchi jarayondir. Tanlanma – nutq birliklarining chastotasini aniqlash uchun saralangan matnlar to'plami bo'lib, kompyuter yordamida shakllangan maxsus korpusni anglatadi. "Korpus – ma'lum maqsadda yig'ilgan matnlar majmuini tashkil etuvchi til birliklari yig'indisi, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og'zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta'minot asosida joylashtirilgan online yoki off-line tizimda ishlaydigan matnlar jamlanmasi"<sup>3</sup> hisoblanadi. O'zbek tilining milliy, ta'limiy va xalqaro miqyosdagi korpuslari, asosan, so'zshakl va leksema chastotasini aniq hisoblovchi "raqamli yordamchi" bo'lib, morfologik shakllar – qo'shimchalar bo'yicha miqdoriy amallarni bajarishda biroz noqulayliklarga ega. Buning sababi o'zbek tilining murakkab grammatik tuzilishga egaligi, agglyutinatativ xususiyati, jumladan, "fe'lga xos kategorial shakllarining o'zaro bog'liqligi va dialektik yaxlitligi"<sup>4</sup> va bu jihatdan

<sup>1</sup> Musulmonova N.R., Shodmonova M.B. Linguistic Essence as a Set of Generalities and the Integral Realization of Linguistic Potential in Speech. In Proceedings of the 1st Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies – PAMIR, 2023, PB - SciTePress DOI: 10.5220/0012487800003792 ISBN 978-989-758-687-3. P. 361.

<sup>2</sup> Rizayev S. O'zbek tilining lingvostatistik tahlili. F.f.d. diss. – Toshkent, 2008, 7-bet

<sup>3</sup> Захаров V., Менглиев B., Намроева Sh. Korpus lingvistikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2023, 8-bet.

<sup>4</sup> Мусулманова Н.Р. Структура общего значения категорий времени и наклонения в узбекском языке. Вестник науки и образования, 2020, №2 (80), – С. 36.

tabiiy tilni kompyuter tiliga o'tkazishda hali kamchiliklarning mavjudligidir. Shu sababdan morfostatistik tahlillarni amalga oshirish, bu orqali morfologik birliklarning nutqdagi darajalanishini aniqlash leksikostatistik amaliyotdan ancha murakkab.

Fe'l morfologik shakllarining nutqda qo'llanish darajasini aniqlashda maxsus tanlanmaga zarurat tug'iladi, "tanlanma to'g'ri tashkil etilsa, u nutq birliklarining qo'llanish darajasini ishonchli ko'rsatib bera oladi"<sup>5</sup>. Bunga, birinchidan, o'zbek tili korpuslarida qo'shimchaning alohida shakli orqali uning chastotasini aniqlash imkoni yo'qligi, ikkinchidan, tadqiqot maqsadidan kelib chiquvchi maxsus korpus yaratish ehtiyojining mavjudligidir. Tadqiqot uchun mo'ljallangan maxsus tanlanma korpus tilshunosligida tan olingan mezonlarga javob berishi va izlanish natijalarining samarali bo'lishini ta'minlashi lozim. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, lingvostatistik izlanishlarning aniq va ishonchli natijalar asosida tugallanishi tanlanmadagi so'zlarning miqdori ko'p bo'lishini talab qiladi, ya'ni chastotasi aniqlanayotgan muayyan birlik qancha ko'p so'zga ega matnlar ichidan qidirilsa, uning statistik aniqligi shuncha ortadi. Jumladan, leksik va morfologik birliklarning chastotasini aniqlash uchun lingvostatistik aniqlik kamida 1 million so'z qo'llanishga ega tanlanma matndan iborat bo'lishi zarur. "Korpus lingvistikasi an'analariga muvofiq (Brown, 1961), kamida bir million so'zlik korpus tadqiqotlarda minimal asos hisoblanadi. Bu yondashuv tahliliy va kontekstuallik aspektida ishonchli natijalar olishni ta'minlaydi"<sup>6</sup>.

Tanlanma uchun matnlar saralanayotganda ularning qanday maqsadda tanlanayotgani, matnlarning lingvistik xususiyatlari, hajmi, janri, mavzuiy ko'lami, yaratilgan vaqti va shakli eng muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi. Shunga ko'ra, quyidagi jadval maqsadli tanlanma uchun muhim va bu tanlanma modeli – tadqiqiy korpus yaratilishiga asos bo'ladi:

1-jadval

**Nutqiy darajalanishda tanlamalarni turlariga ko'ra saralash**

1) Umummilliy va adabiy til doirasidagi matnlar

2) Nutq shakliga ko'ra: og'zaki va yozma matnlar

3) Nutqning vazifaviy uslublariga ko'ra: so'zlashuv, badiiy, rasmiy, ilmiy va publitsistik matnlar

4) Muallifi aniq va aralash matnlar

5) Davr ko'rsatkichiga ko'ra: davriy chegaralangan va davriy chegaralanmagan matnlar

<sup>5</sup> Nasirdinova O. The Necessity of Identifying The Usage Frequency of Verb Morphological Forms In The Uzbek Language. American Journal of Philological Sciences, 5(06), P.297. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume05Issue06-78>

<sup>6</sup> Gena R. Bennit. Using Corpora in the Language Classroom: Corpus Linguistics for Teaching. – Michigan ELT, 2010. P. 2.

O'zbek tili o'rganuvchilari, asosan, adabiy til doirasidagi matnlar asosida lug'at va grammatik bilimga ega bo'lishini inobatga olib, saralanayotgan matnlarning adabiy til doirasida chegaralanishi maqsadga muvofiqdir. Adabiy til matnlarning yozma shakllari tanlab olinadi. Masalaning ikkinchi tomoni shundaki, hozirgacha yaratilgan o'zbek tili korpuslarida og'zaki matnlar mavjud emasligi, bu tur matnlar korpusini yaratish murakkab va uzoq muddatli jarayon ekanligi hamda adabiy til imkoniyatlari, asosan, to'rt uslubdagi – badiiy, publitsistik, rasmiy va ilmiy matnlarda ko'proq namoyon bo'lishi e'tiborga molik jihatdir.

Matnlarning muallifiga ko'ra, tabiiyki, aralash muallifli matnlarda adabiy til imkoniyatlari keng bo'lib, nutqiy rang-baranglik bir millat va tilga ega turli jins, yosh va ijtimoiy mavqedagi insonlarning nutqida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, bir muallifli matnlar hajm va mavzu ko'lamiga ko'ra tor, janr va uslub jihatdan serjilo emas. Davr ko'rsatkichiga ko'ra esa saralanayotgan matnlar til taraqqiyotining turli bosqichlarini qamrab ololmasligi va o'rganuvchiga, asosan, bugunning tili dolzarbligi bois davriy chegaralangan, ya'ni so'nggi choraklikdagi – 2000 – 2025-yillar oralig'ida yaratilgan matnlar saralanishi munosib tanlovdur.

Yuqoridagi xususiyatlarni o'zida aks ettirgan tanlanma kompyuter texnologiyalari asosidagi maxsus tadqiqiy korpusning yaratilishiga asos bo'ladi. Tanlanma modelini yaratishning keyingi bosqichi korpusni loyihalash va korpus tilshunosligida tan olingan mezonlarga bo'ysundirishdan iborat. Shu jihatdan maxsus tanlanma asosidagi tadqiqiy korpus uchun muhim tamoyillar – representativlik, maqsadga muvofiqlik, hajm va balans, vaqt qamrovi, janr va mavzu xilma-xilligi, metama'lumot va texnik standartlar korpusning sifatli va ishonchliligini ta'minlaydi.

O'zbek tilida fe'l morfologik shakllarining nutqda qo'llanishini aniqlash maqsadida yaratilgan "O'zFe'lKorpus" bu jarayonni osonlashtiruvchi, fe'lga oid kategorial qo'shimchalar va so'zshakllarning statistikasini aniqlashga mo'ljallangan tadqiqiy minikorpusdir. Ushbu korpusning yuqoridagi tamoyillarga mosligini ko'rib chiqish mumkin. "O'zFe'lKorpus" hozirgi o'zbek adabiy tilida, 2000 – 2025-yillar oralig'ida yaratilgan 4 uslub – badiiy, ilmiy, rasmiy va publitsistik uslubdagi matnlarni o'z ichiga oladi. She'riy (24 ta) va nasriy asarlardan (20 ta) tashkil topgan badiiy matnlar janr jihatdan she'r, doston, hajviy she'rlar, to'rtliklar, hikoya, qissa, roman, guring-romandan iborat. Rasmiy uslubdagi matnlar Lex.uz saytidan olingan hukumat qarorlari, qonunlari, Prezident farmonlari va turli mavzudagi shartnomalar, bundan tashqari, tilxat, ariza, bildirgi, ma'lumotnoma va tavsiyanoma namunalari hamda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi matnidan iborat. Publitsistik uslubdagi matnlar "Xalq so'zi", "XXI asr", "Guliston", "O'zbekiston", "Tong tulduzi", gazetalari, "Yoshlik" va "Saodat" jurnallarida chop etilgan turli publitsistik janrdagi matnlarni qamrab oladi. Ilmiy uslubdagi matnlar lingvistik mavzuli dissertatsiyalar, adabiyot, tarix, san'at, tibbiyot, huquqshunoslik va aniq-texnik fanlar doirasidagi darsliklar matni, ilmiy jurnallardagi ilmiy maqola va tezislarni o'z ichiga oladi. Matnlarning turli uslub va mavzuiy matnlardan iborat ekanligi korpusning representativlik xususiyatini o'zida namoyon etadi. "Korpus ma'lumotining ishonarliligini ta'minlovchi omil – uning representativligi. Bu xususiyatga korpus hajmining kattaligi, matnlarning turli janrga mansubligini ta'minlash bilan erishib bo'ladi.

Nutqiy faoliyat, haqiqatan ham, rang-barang, turli shakllarda (og'zaki, yozma, bosma va h.) namoyon bo'ladi hamda nutqiy voqelanishlarning cheksizligini ta'minlaydi<sup>7</sup>.

Maqsadga muvofiqlik tamoyiliga ko'ra o'zbek tilini o'rganuvchilari tilni o'rganish mobaynida foydalanishi mumkin bo'lgan turli uslub va mavzudagi matnlar tanlab olindi. Istisno sifatida so'zlashuv uslubiga oid matnlarda yozma shakldan ko'ra og'zaki ifoda kuchi yuqoriligi va buning uchun maxsus og'zaki korpus yaratish lozimligini inobatga olib, bu uslub matnlari tanlanmaga – korpusga kiritilmadi (bizningcha, bu alohida tadqiq talab etadigan ilmiy mavzu).

Hajm va balans tamoyiliga ko'ra korpus 1276140 so'zni o'z ichiga oladi, uslubiy o'ziga xoslik jihatdan matnlar taqsimoti deyarli teng. Bundan tashqari, korpusdagi matnlar haqidagi ma'lumotlar – metama'lumotlar korpusning "Statistika" bo'limida maxsus jadvallarda berilgan va dasturiy ta'minot texnik standartlarga moslashtirilgan. "O'zFe'lKorpus"ni yaratishdan maqsad, birinchidan, fe'l morfologik shakllarining nutqda qo'llanish darajasini aniqlashda raqamli tanlanmani shakllantirish bo'lsa, ikkinchidan, bu ilmiy jarayonning natijalari – fe'l morfologik shakllarining chastotali va darajali lug'atlarini keng omma uchun taqdim etuvchi dasturdir. Bundan tashqari, bu minikorpus boshqa ilmiy tadqiqotlar – leksikostatistik va morfostatistik tahlillar uchun ham tanlanma vazifasini bajaradi.

Xulosa shuki, lingvostatistik tadqiqotlarda tanlanmalarni saralash tadqiqot maqsadi va metodologiyasiga bog'liq bo'lib, agar jarayon kompyuter texnologiyalari asosida amalga oshirilsa, tanlanma modeli – korpus yaratiladi hamda uni shakllantirishda o'ziga xos maxsus tamoyillarga asoslanish talab etiladi. O'zbek tilida yaratilgan barcha korpuslar ma'lum maqsadda turli hajm va tuzilishga ega bo'lib, odatda ular lingvistik va ta'limiy tadqiqotlar uchun tanlanma vazifasini o'taydi. Tilning dinamik harakati nutqda namoyon bo'lishini hisobga olsak, bu tanlanmalar vaqt o'tgan sari yangilanib va takomillashtirib turilishi korpuslarning mukammal variantini shakllantiradi hamda bu orqali ilmiy va ta'limiy jarayonlar osonlashishiga erishiladi.

**REZYUME.** Maqola o'zbek tilida fe'l morfologik shakllarining nutqda qo'llanish darajasi va chastotasini aniqlashda tanlanmalar – saralangan matnlarning ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматривается значение выборки – специально отобранных текстов, используемых для определения частотности и степени употребления морфологических форм глагола в узбекском языке.

**RESUME.** This article explores the significance of selected text samples in determining the frequency and degree of usage of verb morphological forms in the Uzbek language.

**Tayanch so'zlar va iboralar:** lingvostatistika, morfostatistika, fe'l so'z turkumi, nutqiy darajalanish, tanlanma, til korpusi, tadqiqiy korpus, "O'zFe'lKorpus"

**Ключевые слова и выражения:** лингвостатистика, морфостатистика, глагольная часть речи, речевая градуальность, выборка, языковой корпус, исследовательский корпус, "UzVerbCorpus".

**Key words and word expressions:** linguostatistics, morphostatistics, verb as a part of speech, speech gradation, sample, language corpus, research corpus, "UzVerbCorpus".

<sup>7</sup> Zaxarov V., Mengliyyev B., Hamroyeva Sh. Korpus lingvistikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2023, 116-bet